

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATAXO‘JAYEVA SHAXLO ANVAROVNA

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARI CHET TILI O‘QITUVCHILARIDA
SOTSIAL-EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on psychological
sciences**

Ataxo‘jayeva Shaxlo Anvarovna

Oliy ta’lim muassasalari chet tili o‘qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikni
rivojlantirishning psixologik determinantlari 5

Атахужаева Шахло Анваровна

Психологические детерминанты развития социально-эмоциональной
компетентности у преподавателей иностранных языков в высших учебных
заведениях 29

Atakhujaeva Shaxlo Anvarovna

Psychological determinants of the development of socio-emotional competence
among foreign language teachers in higher education institutions..... 59

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 64

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATAXO‘JAYEVA SHAXLO ANVAROVNA

**OLIY TA‘LIM MUASSASALARI CHET TILI O‘QITUVCHILARIDA
SOTSIAL-EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/P153 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rasmiy opponentlar:

Safarov Dilmurod Xalimovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sharapova Saboxat Djaparovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sherimbetova Zamira Shalabayevna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro xalqaro universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.P.08.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 21 avgust kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-57; e-mail: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 20.10.14 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «3» avgust da tarqatildi.

(2026-yil «3» avgust dagi 37 raqamli reestr bayonnomasi.)



A.M. Nazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Xuseynova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash, ularning kasbiy faoliyatida sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirish hamda o'qitish sifatini zamonaviy ta'lim islohotlari talablari darajasiga ko'tarish masalalari yetakchi ilmiy markazlar tomonidan keng doirada tadqiq qilinmoqda. Jumladan, TESOL (Teachers of English to Speakers of Other Languages)ning 2022-yildagi konferensiyasida sotsial-emotsional kompetentlik o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida qayd etilgan. The British Councilning 2023-yildagi tadqiqotlariga ko'ra, sotsial-emotsional kompetentligi rivojlangan chet tili o'qituvchilarining talabalarga pedagogik ta'siri 40 foizga samaraliroq ekani aniqlangan. Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish xalqaro integratsiyaning muhim shartlaridan biri bo'lib, chet tili o'qituvchilari xalqaro muloqot va madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirishning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirish xalqaro ta'lim tizimining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda¹.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirish, samarali kommunikatsiya orqali chet tilini o'qitish sifatini oshirish, talabalar bilan konstruktiv muloqot o'rnatish, madaniy farqlarni hisobga olish, til o'rganishdagi psixologik to'siqlarni bartaraf etish hamda kasbiy o'zini-o'zi determinatsiyalash kabi pedagogik-psixologik omillarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chet tili o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasi, stressga bardoshliligi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ qobiliyatlari nafaqat ularning kasbiy muvaffaqiyatiga, balki talabalarning bilimlarni o'zlashtirish samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, zamonaviy ta'lim standartlarini takomillashtirish va o'qituvchilarning sotsial-emotsional salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda².

Yangilanayotgan O'zbekistonda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Taraqqiyot strategiyasi» doirasida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish, chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish, xalqaro sertifikatlariga ega pedagoglarni rag'batlantirish hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini kengaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy samaradorligini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda yoshlarni global mehnat bozori talablariga mos tayyorlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

¹ <https://www.tesol.org/convention-2022>

² <https://www.tesol.org>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

«2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari, «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son «Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son «Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyat sohasiga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴.

Oliy ta'lim muassasalari xorijiy til o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning psixologik determinantlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar bugungi kunda dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida izchil olib borilmoqda. Jumladan, chet tili o'qituvchilarining emotsional barqarorligi, empatik qobiliyati, kommunikativ kompetentligi, kasbiy motivatsiyasi, stressga bardoshliligi, ijtimoiy moslashuvchanligi hamda o'zini-o'zi boshqarish xususiyatlarini rivojlantirish masalalari Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Garvard universiteti (AQSh), TESOL International Association (AQSh), British Council (Buyuk Britaniya), European Commission (Belgiya), OECD, American Psychological Association (AQSh), shuningdek, UNESCO doirasidagi ta'lim va pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligi uning kasbiy samaradorligi, talabalar bilan konstruktiv muloqot o'rnatishi, madaniyatlararo kommunikatsiyani boshqarishi va ta'lim jarayonida psixologik qulay muhit yaratishini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etilmoqda.

Xalqaro miqyosda chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar natijasida bir qator muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Xususan, o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi va emotsional holati ta'lim samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligi asoslangan (Kembrij universiteti, Buyuk Britaniya); sotsial-emotsional ko'nikmalarning onlayn va an'anaviy ta'lim sharoitida pedagogik muloqot hamda talabalarning o'quv faolligiga ijobiy ta'siri aniqlangan (Garvard universiteti, AQSh).

⁴ <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.harvard.edu/>; <https://www.tesol.org/>; <https://www.britishcouncil.org/>; <https://ec.europa.eu/>; <https://www.oecd.org/>; <https://www.apa.org/>; <https://www.unesco.org>

Shuningdek, chet tili o'qituvchilarida emotsiyalarni boshqarish, empatiya, samarali kommunikatsiya va madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirishning kasbiy faoliyat samaradorligidagi ahamiyati qayd etilgan (TESOL International Association, AQSh; British Council, Buyuk Britaniya); o'qituvchilarning emotsional barqarorligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida baholangan (European Commission, Belgiya). Bundan tashqari, sotsial-emotsional kompetentlikning kasbiy qoniqish, psixologik barqarorlik, stressga bardoshlilik va kasbiy motivatsiya bilan o'zaro bog'liqligi o'rganilgan (OECD; American Psychological Association, AQSh), o'qituvchining sotsial-emotsional salohiyati esa ta'lim muhitida psixologik xavfsizlik, o'zaro hurmat va samarali pedagogik hamkorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etilgan (UNESCO).

Jahon miqyosida oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini psixologik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarda bir qator ustuvor yo'nalishlar ajratib ko'rsatilmoqda. Ular chet tili o'qituvchilarining «emotsional barqarorlik», «empatiya», «kommunikativ kompetentlik», «kasbiy motivatsiya», «stressga bardoshlilik» va «ijtimoiy moslashuvchanlik» xususiyatlarini aniqlash; sotsial-emotsional kompetentlikning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarini baholashga xizmat qiluvchi psixodiagnostik vositalarni takomillashtirish; o'zini-o'zi anglash, emotsiyalarni boshqarish, madaniyatlararo muloqot va konstruktiv pedagogik hamkorlikni rivojlantiruvchi trening hamda psixologik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni qamrab oladi. Shu bilan birga, chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samaradorligini muntazam monitoring qilish, ularning kasbiy faoliyat va ta'lim sifati bilan bog'liqligini ilmiy mezonlar asosida baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijalari chet tili o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish, psixologik jihatdan barqaror, empatik, kommunikativ faol va madaniyatlararo muloqotga tayyor pedagog shaxsini shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz pedagog va psixolog olimlaridan A.D.Askarov, Sh.A.Abdullayeva, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, R.M.Haydarov, S.S.Igamov, M.J.Mutalipova, Z.T.Nishanova, B.R.Qodirov, O.A.Qo'ysinov, M.X.Shomirzayev, D.Sobirova, J.X.Xayitov, E.G'.G'oziyev va boshqalar oliy ta'limda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, psixologik kompetentligi, sotsial-emotsional faolligi, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlovchi psixologik xususiyatlar hamda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etishgan⁵.

⁵ Askarov A.D. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: PhD diss. - Toshkent, 2024. - 132 b.; Abdullayeva Sh.A. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: psixol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref. - Toshkent, 2019.; Baratov Sh.R. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дисс. ... докт. психол. наук. - Т., 1998. - 37 с.; Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. - B. 30, 41.; G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya. - Toshkent, 2014. - 118 b.; Haydarov R.M. Pedagogik mahorat va psixologik kompetentlik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. - 256 b.; Igamov S.S. Xalq hunarmandchiligining tarixiy taraqqiyotini o'rganish va o'rgatish pedagogik muammo sifatida // SamDU ilmiy axborotnomasi. - Samarqand, 2020. - B. 151-154.; Mutalipova M.J.,

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.V.Gaponova, A.V.Karpov, A.Y.Ponomaryov, B.S.Dudchenko, I.V.Borzenkova, I.V.Karpova, N.A.Berdyayev, N.S.Kuznetsova, O.V.Makarova, S.A.Petrova, T.V.Smirnova, V.D.Shadrikov, V.N.Drujinin, Y.V.Dergacheva va boshqalar pedagogning sotsial-emotsional kompetentligi, emotsional intellekti, kasbiy faoliyatda ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish, pedagogik-psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish, refleksiv mexanizmlar, kasbiy qobiliyatlar hamda sotsial-emotsional barqarorlikni ta'minlovchi psixologik mezonlar bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan⁶.

Xorij tadqiqotchilaridan G.Allport, C.Baker, C.Gkonou, A.Dewaele, E.H.Lenneberg, E.Nicoladis, F.Genesee, I.Boivin, J.M.Baer, J.Mercer, J.Piaget, L.F.Higgs, N.Chomsky, R.L.Oxford, S.V.Taylor, S.King, T.Gregersen, V.V.Krob. va boshqalar chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi, talabalar bilan konstruktiv munosabat o'rnatish, emotsional intellekt va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish, til o'qitish jarayonidagi individual-psixologik xususiyatlar, kasbiy qobiliyatlar hamda pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni tadqiq etishgan⁷.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot

Xodjayev B.X. Uzluksiz ta'lim pedagogikasi. - Toshkent, 2015. - 230 b.; Nishanova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. - Toshkent: TDPU, 2003. - 136 b.; Qodirov B.R. Ta'lim jarayonining psixologik asoslari. - Toshkent: Fan, 2005.; Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: ped. fan. d-ri (DSc) diss. - Toshkent, 2019.; Shomirzayev M.X. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik. - Termiz: TerDU nashr-matbaa markazi, 2020. - 226 b.; Sobirova D. Oliy ta'limda pedagogik muhit va kasbiy rivojlanish masalalari. - Toshkent, 2021.; Xayitov J.X. Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari. - Buxoro, 2022.

⁶ Гапонова С.А. Психические состояния как фактор развития профессиональных представлений у студентов // Психологическая наука и образование. - 2022. - Т. 27. - № 2. - С. 29-41.; Карпов А.В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. - М.: Институт психологии РАН, 2004. - 424 с.; Пономарев Я.А. Психология творчества. - М.: Наука, 1976. - 304 с.; Дудченко В.С. Инновационные технологии: организационно-деятельностные игры и консультирование. - М., 1996.; Борзенкова И.В. Психология творчества. - Курск, 2002. - 68 с.; Карпова Е.В., Коптева С.И. Формирование у будущих педагогов эмпатии как профессионального качества // Ярославский педагогический вестник. - 2019. - № 2.; Бердяев Н.А. О рабстве и свободе человека. - Париж: YMCA-Press, 1939.; Кузнецова Н.В. Профессиональная компетентность педагога: теория и практика формирования. - М.: Академия, 2012. - 256 с.; Макарова О.В. Психолого-педагогические условия профессионального развития преподавателя высшей школы. - М., 2015.; Петрова С.А. Профессиональное развитие педагога: психологические аспекты. - М., 2014.; Смирнова Т.В. Психология профессиональной деятельности педагога. - М., 2013.; Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. - М.: Логос, 1996. - 320 с.; Дружинин В.Н. Психология общих способностей. - СПб.: Питер, 2008. - 368 с.; Дергачева Ю.В. Психолого-педагогические аспекты профессионального развития личности. - М., 2016.

⁷ Allport G.W. The Nature of Prejudice. - Cambridge, MA: Addison-Wesley, 1954.; Baer J. Creativity and Divergent Thinking: A Task-Specific Approach. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1993.; Baker C. Foundations of Bilingual Education and Bilingualism. - Bristol: Multilingual Matters, 2011. - 512 p.; Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. - Cambridge, MA: MIT Press, 1965. - 251 p.; Dewaele A. The Psychology of Foreign Language Learning and Teaching. - London: Palgrave Macmillan, 2019.; Genesee F. Educating English Language Learners. - Cambridge: Cambridge University Press, 2008.; Gkonou C., Mercer S., Dewaele J.-M. The Emotional Rollercoaster of Language Teaching. - Bristol: Multilingual Matters, 2020. - 304 p.; Gregersen T., MacIntyre P.D. Capitalizing on Language Learners' Individuality. - Bristol: Multilingual Matters, 2014. - 320 p.; Lenneberg E.H. Biological Foundations of Language. - New York: Wiley, 1967. - 489 p.; Mercer S., Gregersen T. Teacher Wellbeing. - Oxford: Oxford University Press, 2020.; Nicoladis E., Montanari S. Bilingualism Across the Lifespan: Factors Moderating Language Proficiency. - Berlin, Boston: De Gruyter Mouton, 2016.; Oxford R.L. Teaching and Researching Language Learning Strategies. - London: Routledge, 2017. - 368 p.; Piaget J. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 1950. - 182 p.

rejasining «Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish» nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2026 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning psixologik determinantlarini o'rganish va uni ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi samaradorligini takomillashtirishga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarni aniqlash va tahlil etish;

sotsial-emotsional kompetentlik samaradorligi darajasini baholashga imkon beruvchi psixodiagnostik dastur ishlab chiqish, muammo yechimiga oid tanlangan usullar natijalarini tahlil qilish;

oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini takomillashtiruvchi psixologik indikatorlarni aniqlashtirish;

sotsial-emotsional kompetentlikka ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlar va ularning ta'sir kuchini ilmiy baholashning psixologik determinantlarini aniqlashtirish;

oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishning psixologik korreksion dasturi va psixologik modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotga Namangan chet tillar institutidan 155 nafar, O'zbekiston Milliy pedagogika universitetidan 62 nafar, University of Business and Science universitetidan 53 nafar, Guliston davlat universitetidan 65 nafar, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetidan 176 nafar hamda Buxoro davlat universitetidan 84 nafar, jami, 595 xorijiy tillar fakultetining professor-o'qituvchilari respondent sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi va uni rivojlantirishning psixologik determinantlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishini olib borish davomida suhbat, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, Schutte tomonidan ishlab chiqilgan «Emotsional intellektni aniqlash» metodikasi, Gilfordning «Ijtimoiy intellektni aniqlash» testi, Mehrabian va Epsteinlarning «Emotsional empatiyani aniqlash» shkalasi, Kettellning «Shaxsning 16 omilli xususiyatlarini baholash» so'rovnomasi, Panteleev va Stolinlar tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxsning o'z-o'ziga munosbatini baholash», so'rovnomasi, Xollning «Emotsional intellektni aniqlash» so'rovnomasi hamda Nikiforov tomonidan ishlab chiqilgan «Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish» so'rovnomalaridan foydalanilgan. Shuningdek, matematik-statistik usullar parametrik va noparametrik mezonlar hamda K. Pirson korrelyatsion

koefitsiyenti mezonlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi emotsional anglash, hissiy boshqaruv, kommunikativ moslashuv va refleksivlik komponentlarining integrativ uyg'unligiga asoslanib, real pedagogik vaziyatlarda hissiy holatlarni adekvat ifodalash orqali qaror qabul qilish kompetensiyasi bilan funksional bog'liq ekanligi aniqlangan;

chet tili o'qituvchilaridagi sotsial-emotsional kompetentlikning rivojlanishi bilingual muhitdagi interkultural muloqot va verbal-noverbal persepsiya xususiyatlarining differensial namoyon bo'lishiga asoslanib empatiyaning ijtimoiy intellekt negizida dominant ifodalanishini belgilovchi psixologik determinant ekanligi dalillangan;

chet tili o'qituvchilarining emotsional va sotsial intellektini o'zaro bog'liqligiga ko'ra empatik idrok va interpersonal sezgirlikning uyg'unligiga asoslanib emotsional reaksiyalarni tushunish hamda hislarni boshqarish ko'nikmasining integratsiyasi orqali kompetentlikni rivojlantiruvchi psixologik peridiktor ekanligi aniqlangan;

chet tili o'qituvchilaridagi sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik jarayonda bilingual muhitning subyekt-subyekt munosabatlariga ta'siriga asoslanib emotsional holatlarda, faoliyatda va ijtimoiylashuv jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning integrativ namoyon bo'lishi muhim ekanligi dalillangan;

chet tili o'qituvchilarining emotsional va sotsial intellekti emotsional reaksiyalarni tushunish, empatiya, emotsiyalarni boshqarish hamda o'zini nazorat qilish bilan o'zaro bog'liq ekanligi natijasida, emotsional intellekt empatik munosabatlar va faoliyatda o'zini nazorat qilishga, sotsial intellekt esa ijtimoiylashuv jarayonida o'zini nazorat qilish va emotsiyalarni boshqarishga kuchli ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilarining emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lishi ularning talabalar bilan samarali va empatik muloqot o'rnatishiga yordam berib, ta'lim jarayonida o'zaro tushunish va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan;

chet tili o'qituvchilarining emotsional empatiya, sotsial intellekt, shaxsning o'z-o'ziga munosabati va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish ko'rsatkichlari kasbiy samaradorlik va psixologik moslashuvchanlik bilan bog'liq bo'lib, ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish o'qituvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilanishiga olib kelingan;

ish tajribasi ortgan sari chet tili o'qituvchilarining empatiya va emotsional reaksiyalarni tushunish darajasi oshib borishi pedagogik jarayonda sifatli o'qitish, talabalar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda sotsial-emotsional kompetentlikni shakllantirish uchun muhim omil ekanligi asoslangan;

emotsional va sotsial intellektning rivojlanishi o'qituvchilarning emotsiyalarni boshqarish, empatiya va o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini kuchaytirib, ularning kasbiy faoliyatdagi barqarorligi va ta'lim jarayonida samarali pedagogik strategiyalarni qo'llashiga imkon yaratishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi,

avvalo, tadqiqotda qo'llanilgan metodikalar va matematik-statistik aniq metodlar jahon tajribasida ko'p qo'llanilganligi, olingan empirik usullar nazariy jihatdan chuqur tahlil qilinganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan, tadqiqotda taqdim etilgan ma'lumotlar aniq manbalarga tayanilganligi, tadqiqot doirasining kengligi sifatida turli hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tanlangani, barcha oraliq natijalar yirik ilmiy anjumanlar faoliyati doirasida yetakchi olimlar ishtirokida muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy o'quv yurtlarida chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari xalqaro miqyosda o'zining ishonchli ekanini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to'plangani, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy va xorijiy tillarni o'qitish fanlari bo'yicha takomillashtirilgan malaka talablari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda oliy o'quv yurtlarida chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi samaradorligini oshirishda pedagoglarning sotsial va emotsional kompetentligini zamonaviy talablar darajasida rivojlantirishga oid uslublarning yoritib berilgani va tadqiqot o'tkazish jarayonida ijobiy xususiyatlarning takomillashtirilgani hamda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlarida umumiy psixologiya, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, psixolingvistika, psixodiagnostika, kasbiy psixologiya va psixologik xizmat fanlarini ilmiy manbalar bilan boyitishda va universitet psixologlari malakasini oshirishda shuningdek, bo'lajak soha egalarini kasbiy faoliyatga xos tarbiyalashda, «rahbar-pedagog», «pedagog-talaba» hamkorligining muhimligi, ijtimoiy sohalar bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlashga xizmat qilishi, tadqiqotdan olingan natijalar ishning ilmiy-amaliy jihatlarini shakllantirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishning psixologik determinantlari»ni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi emotsional anglash, hissiy boshqaruv, kommunikativ moslashuv va refleksivlik komponentlarining integrativ uyg'unligiga asoslanib, real pedagogik vaziyatlarda hissiy holatlarni adekvat ifodalash orqali qaror qabul qilish kompetensiyasi bilan funksional bog'liq ekanligi aniqlanganligiga doir ilmiy natijalar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrda №-PM-175-sonli buyrug'i bilan «Pedagogik-psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrda №-PM-175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oliy o'quv yurtlarida kasbiy faoliyat olib boruvchi chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishga sabab bo'luvchi determinantlarni aniqlashga erishilgan;

chet tili o'qituvchilaridagi sotsial-emotsional kompetentlikning rivojlanishi bilingual muhitdagi interkultural muloqot va verbal-noverbal persepsiya xususiyatlarining differensial namoyon bo'lishiga asoslanib empatiyaning ijtimoiy

intellekt negizida dominant ifodalanishini belgilovchi psixologik determinant ekanligi dalillanganligiga doir ilmiy natijalar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy-psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalaridagi chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishga oid mashg'ulotlarning uslubiy ta'minoti boyishiga xizmat qilgan;

chet tili o'qituvchilarining emotsional va sotsial intellektini o'zaro bog'liqligiga ko'ra, empatik idrok va interpersonal sezgirlikning uyg'unligiga asoslanib emotsional reaksiyalarni tushunish hamda hislarni boshqarish ko'nikmasining integratsiyasi orqali kompetentlikni rivojlantiruvchi psixologik peridiktor ekanligi aniqlanganligiga doir natijalar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli buyrug'i bilan «Pedagogik-psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, amaliyotchi psixologlarning kasbiy faoliyatining metodik ta'minotini boyitishga xizmat qilgan;

chet tili o'qituvchilaridagi sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik jarayonda bilingual muhitning subyekt-subyekt munosabatlariga ta'siriga asoslanib emotsional holatlarda, faoliyatda va ijtimoiylashuv jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning integrativ namoyon bo'lishi muhim ekanligi dalillanganligiga doir natijalar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli buyrug'i bilan «Ijtimoiy-psixologiya» moduliga kiritilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kasbiy faoliyatda sotsial-emotsional kompetentlik samaradorligiga ta'sir etuvchi xususiyatlarni aniqlashga erishilgan;

chet tili o'qituvchilarining emotsional va sotsial intellekti emotsional reaksiyalarni tushunish, empatiya, emotsiyalarni boshqarish hamda o'zini nazorat qilish bilan o'zaro bog'liq ekanligi natijasida, emotsional intellekt empatik munosabatlar va faoliyatda o'zini nazorat qilishga, sotsial intellekt esa ijtimoiylashuv jarayonida o'zini nazorat qilish va emotsiyalarni boshqarishga kuchli ta'sir ko'rsatishi isbotlanganligiga doir natijalar O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli buyrug'i bilan «Psixodiagnostika» moduliga kiritilgan (O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 2-dekabrdagi №-PM-175-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oliy o'quv yurtlarida sotsial-emotsional kompetentlik samaradorligini ta'minlashning psixodiagnostik jihatlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari

bo'yicha 1 ta monografiya, 14 ta ilmiy maqola, shulardan 10 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, o'n ikkita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 260 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Oliy ta'lim chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentligi muammosining psixologik tadqiqotlardagi nazariy sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida sotsial-emotsional kompetentlik tushunchasining psixologik mazmuni, tarkibiy komponentlari va uning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik asoslari, mazkur muammoning ilmiy tadqiqotlardagi o'rganilish holati hamda zamonaviy xorijiy tajribalarning o'ziga xos jihatlari yoritilgan.

Sotsial-emotsional kompetentlik shaxsning o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish, ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri idrok etish hamda samarali muloqot va hamkorlikni tashkil eta olish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab psixologik konstrukt hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida, ayniqsa, chet tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida ushbu kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki chet tilini o'qitish jarayoni lingvistik bilimlar bilan bir qatorda madaniyatlararo kommunikatsiya, ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etish va emotsional holatlarni to'g'ri anglashni ham talab qiladi. Shu sababli chet tili o'qituvchisida akademik va metodik bilimlar bilan birga rivojlangan emotsional intellekt, empatiya, o'zini-o'zi boshqarish va kommunikativ ko'nikmalarning mavjudligi muhim kasbiy talab hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar sotsial-emotsional kompetentligi rivojlangan o'qituvchilar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishi, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirishi va auditoriyada ijobiy psixologik muhit yaratishi mumkinligini ko'rsatadi.

Sotsial-emotsional kompetentlik muammosi XX asrning 90-yillaridan boshlab psixologik tadqiqotlarda keng o'rganila boshlandi. Amerikalik psixolog D.Goleman tomonidan emotsional intellekt konsepsiyasining rivojlantirilishi ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning kengayishiga muhim turtki bo'ldi. D.Goleman tomonidan ilgari surilgan «o'zini-o'zi anglash», «o'zini boshqarish», «ijtimoiy xabardorlik» va «munosabatlarni boshqarish» komponentlari sotsial-emotsional kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari sifatida talqin etiladi. Mazkur nazariy yondashuvga ko'ra, chet tili o'qituvchilarida ushbu psixologik xususiyatlarning rivojlanganligi ularning kasbiy samaradorligi, pedagogik muloqoti va ta'lim

jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Zamonaviy psixologik va pedagogik tadqiqotlarda sotsial-emotsional kompetentlik «yumshoq ko'nikmalar» («soft skills») tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ham baholanib, ta'lim sohasi mutaxassislari uchun zarur kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi pedagogik stressning kuchayishi, kasbiy emotsional kuyish, kommunikativ qiyinchiliklar va talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasining pasayishi kabi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin. Emotsional jihatdan yetuk o'qituvchi talabalar bilan empatik va konstruktiv muloqot o'rnatadi, murakkab pedagogik vaziyatlarda o'z hissiyotlarini boshqaradi hamda talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabat bildiradi. Aksincha, sotsial-emotsional ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan pedagoglarda stressli vaziyatlarga moslashish, nizolarni konstruktiv hal etish va emotsional zo'riqishni boshqarish bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Natijada pedagog va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda keskinlik kuchayib, ta'lim jarayonining psixologik muhiti hamda umumiy samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ortadi.

Dissertatsiyaning «**Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini tadqiq etish metodologiyasi**» deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini o'rganishga doir metodologik yondashuvlar, jumladan, AQSh va boshqa xorijiy mamlakatlarda mazkur kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyalarning psixologik mazmuni, tadqiqot usullari hamda empirik tadqiqotni tashkil etish bosqichlari yoritilgan.

Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini tadqiq etish metodologiyasi kompleks psixologik diagnostika tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida muammoning nazariy asoslarini shakllantirish maqsadida xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tizimli tahlil qilinib, asosiy konseptual tushunchalar hamda ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlandi. Ushbu bosqichda sotsial-emotsional kompetentlikning psixologik mazmuni, tarkibiy komponentlari va uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi determinantlar bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Nazariy tahlil natijalari asosida empirik tadqiqot dasturi ishlab chiqilib, unda tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ilmiy farazlari, metodlari, tanlanma xususiyatlari va statistik qayta ishlash usullari belgilandi.

Tadqiqot jarayonida sotsial-emotsional kompetentlikning individual va kasbiy xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida anketa va intervyu metodlaridan ham foydalanildi. Anketa savollari o'qituvchilarning emotsional holatlari, shaxslararo muloqot ko'nikmalari, pedagogik faoliyat davomida yuzaga keladigan hissiy vaziyatlarga munosabati, kasbiy o'zini-o'zi baholashi hamda ijtimoiy-emotsional qiyinchiliklarini aniqlashga yo'naltirildi. Shuningdek, yarim tuzilmali intervyular orqali respondentlarning kasbiy tajribasi, pedagogik muloqot xususiyatlari, emotsional zo'riqish holatlariga munosabati va sotsial-emotsional kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi namoyon bo'lish jihatlari sifat jihatidan tahlil qilindi. Bunday kompleks metodologik yondashuv chet tili o'qituvchilarining

sotsial-emotsional kompetentligini turli psixologik ko'rsatkichlar asosida har tomonlama baholash imkonini yaratdi.

Dissertatsiyaning «**Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisi sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishning amaliy natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotdan olingan natijalarning birlamchi empirik tahlili, oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik indikatorlar hamda mazkur kompetentlikka ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, empirik natijalar asosida sotsial-emotsional kompetentlikning tarkibiy ko'rsatkichlari, ularning o'zaro bog'liqligi va kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri yoritilgan.

1-jadval.

Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligi ko'rsatkichlari (n=595)

OTMlar	So'rovnoma va metodikalarning umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari (M)						
	Emotsional empatiya	Schutte Bo'yicha	Sotsial intellekt	Shaxslilik xususiyatlari	Shaxsning o'z-o'ziga munosabati	Emotsional intellekt	Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish
Namangan chet tillar instituti (n=155)	85,2	116,9	3,7	8,4	8,2	56,8	56,8
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti(n=62)	82,5	112,4	3,9	8,2	8,6	60,2	60,2
University of Business and Science (n=53)	75,1	103,7	2,9	6,4	6,9	48,3	48,3
Guliston davlat universiteti (n=65)	64,6	96,1	2,6	5,5	6,2	45,7	45,7
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (n=176)	92,8	125,6	4,1	8,9	9,3	67,1	65,2
Buxoro davlat universiteti (n=84)	80,4	106,3	3,4	7,3	8,8	58,4	58,4

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlili oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi tarkibiy ko'rsatkichlari bo'yicha muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti respondentlarida «emotsional empatiya» (M=92,8), Schutte bo'yicha (M=125,6), «sotsial intellekt» (M=4,1), «shaxslilik xususiyatlari» (M=8,9), «shaxsning o'z-o'ziga munosabati» (M=9,3), «emotsional intellekt» (M=67,1) hamda «emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish» (M=65,2) ko'rsatkichlari boshqa tadqiqot obyektlariga nisbatan yuqori natijalarni namoyon etgan. Bu holat mazkur guruh o'qituvchilarida emotsional holatlarni anglash va boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarni idrok etish, o'ziga nisbatan

ijobiy munosabat hamda shaxslararo muloqotni tashkil etish imkoniyatlari nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Guliston davlat universiteti respondentlarida esa «emotsional empatiya» (M=64,6), «Schutte bo'yicha» (M=96,1), «sotsial intellekt» (M=2,6), «shaxslilik xususiyatlari» (M=5,5), «shaxsning o'z-o'ziga munosabati» (M=6,2) va «emotsional intellekt» (M=45,7) ko'rsatkichlari boshqa guruhlariga nisbatan pastroq qayd etilgan. University of Business and Science respondentlarida ham ayrim ko'rsatkichlarning nisbatan pastligi kuzatiladi. Mazkur holat ushbu guruhlarda sotsial-emotsional kompetentlikning ayrim tarkibiy komponentlarini, xususan, empatiya, ijtimoiy intellekt, emotsional o'zini-o'zi boshqarish va konstruktiv shaxslararo munosabat ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik mashg'ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Namangan chet tillar instituti, O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti va Buxoro davlat universiteti respondentlarining natijalari tadqiqotda ishtirok etgan guruhlar orasida nisbatan oraliq pozitsiyani egallagan. Jumladan, O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti o'qituvchilarida «sotsial intellekt» (M=3,9), «shaxsning o'z-o'ziga munosabati» (M=8,6) va «emotsional intellekt» (M=60,2) ko'rsatkichlari nisbatan yuqori namoyon bo'lgan bo'lsa, Buxoro davlat universitetida «shaxsning o'z-o'ziga munosabati» ko'rsatkichi (M=8,8) boshqa ayrim guruhlariga qaraganda yuqori natijani qayd etgan. Namangan chet tillar institutida esa «emotsional empatiya» (M=85,2) va «Schuttening emotsional intellekt shkalasi» (M=116,9) bo'yicha nisbatan yuqori natijalar kuzatilgan.

Umuman olganda, olingan empirik natijalar oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi bir xil darajada namoyon bo'lmasligini, uning «emotsional empatiya», «emotsional intellekt», «sotsial intellekt», «shaxsning o'z-o'ziga munosabati» va «emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish» kabi tarkibiy ko'rsatkichlari respondentlar guruhiga qarab farqlanishini ko'rsatadi. Bu esa chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishda umumiy yondashuv bilan cheklanmasdan, dastlabki psixodiagnostik natijalarga asoslangan differensial psixologik trening va rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

2-jadval.

Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligi faktorizatsiya ko'rsatkichlari (n=595)

Omillar	Faktorlar			
	1	2	3	4
Emotsional empatiya	0,550	-0,234	0,689	0,280
Schuttening emotsional intellekt shkalasi	0,461	0,424	0,182	-0,272
Sotsial intellekt	0,486	0,725	0,219	0,151
Shaxslilik xususiyatlari	0,575	0,240	-0,108	-0,228
Shaxsning o'z-o'ziga munosabati	0,635	-0,292	0,198	-0,239
Emotsional intellekt	0,592	0,612	0,205	0,272
Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish	0,404	0,215	-0,246	0,478

Birinchi faktor tarkibida «shaxsning o'z-o'ziga munosabati» (0,635),

«emotsional intellekt» (0,592), «shaxslilik xususiyatlari» (0,575), «emotsional empatiya» (0,550), «sotsial intellekt» (0,486) hamda Schuttening «emotsional intellekt shkalasi» (0,461) nisbatan yuqori faktor yuklamalarini namoyon etdi. Mazkur faktor o'qituvchining o'z shaxsiy va emotsional holatini anglash, o'ziga munosabatini shakllantirish, hissiyotlarni tushunish hamda boshqalarning emotsional holatiga empatik munosabat bildirish xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Shu sababli ushbu faktorni shartli ravishda «shaxsiy-emotsional integratsiya» faktori sifatida talqin qilish mumkin. Uning mazmuni sotsial-emotsional kompetentlikning shakllanishida o'zini-o'zi anglash, emotsional yetuklik va empatik munosabatning markaziy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ikkinchi faktorda «sotsial intellekt» (0,725) va «emotsional intellekt» (0,612) eng yuqori yuklamalarni qayd etgan bo'lib, Schutte bo'yicha «emotsional intellekt shkalasi» ham mazkur faktor bilan ijobiy bog'langan (0,424). Ushbu faktor pedagogning ijtimoiy vaziyatlarni to'g'ri anglash, shaxslararo munosabatlarni boshqarish, suhbatdoshning hissiy holatini idrok etish va pedagogik muloqotni samarali tashkil etish qobiliyatlarini ifodalaydi. Mazkur xususiyatlardan kelib chiqib, ikkinchi faktor «ijtimoiy-kommunikativ intellekt» sifatida tavsiflanishi mumkin. Bu esa chet tili o'qituvchisining talaba bilan konstruktiv hamkorlik o'rnatishi va murakkab kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchan munosabat bildirishida sotsial hamda emotsional intellektning o'zaro uyg'unligi muhimligini ko'rsatadi.

Uchinchi faktorda «emotsional empatiya» ko'rsatkichi eng yuqori faktor yuklamasiga ega bo'ldi (0,689). Mazkur natija chet tili o'qituvchisining talabalarning emotsional holatini sezish, ularning hissiy ehtiyojlarini tushunish va pedagogik vaziyatga mos ravishda empatik munosabat bildirish qobiliyatining alohida psixologik ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Shu jihatdan uchinchi faktor «empatik sezgirlik» faktori sifatida talqin qilinib, uning rivojlanganligi pedagog va talaba o'rtasidagi psixologik yaqinlik, o'zaro ishonch va ijobiy emotsional muhitni ta'minlashga xizmat qiladi.

To'rtinchi faktorda «emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish» ko'rsatkichi nisbatan yuqori faktor yuklamasini qayd etdi (0,478). Ushbu faktor o'qituvchining murakkab pedagogik vaziyatlarda o'z hissiyotlarini nazorat qilish, emotsional zo'riqishni boshqarish, stressli sharoitlarda barqaror xulq-atvorni saqlash va vaziyatga mos ravishda o'zini boshqarish xususiyatlarini ifodalaydi. Shu sababli mazkur faktor «emotsional o'zini-o'zi boshqarish» sifatida tavsiflanishi mumkin. Uning rivojlanganligi chet tili o'qituvchilarining kasbiy stressga bardoshliligi, emotsional barqarorligi va pedagogik faoliyatda konstruktiv xulq-atvorni saqlash imkoniyatlarini kuchaytiradi.

Umuman olganda, faktorli tahlil natijalari oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi «shaxsiy-emotsional integratsiya», «ijtimoiy-kommunikativ intellekt», «empatik sezgirlik» hamda «emotsional o'zini-o'zi boshqarish» kabi o'zaro bog'liq psixologik komponentlar asosida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Mazkur faktorlar chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini diagnostika qilish, uning yetakchi psixologik determinantlarini aniqlash hamda maqsadli rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

3-jadval.

A. Mehrabian va N. Epsteinning «Emotsional empatiyani aniqlash shkalasi» so‘rovnomasining qiyosiy ko‘rsatkichlari (Kruskal-Uollis H-mezoniga ko‘ra) (n=595)

Omillar	Guruhlar	Kruskal-Uollis H-mezoni bo‘yicha tafovutli ko‘rsatkichlar	p
Emotsional reaksiyalarni tushunish	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	82,7	0,14
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	85,2	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	91,5	
Empatik munosabatlarni tushunish	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	76,5	0,004*
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	82,8	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	91,2	
Empatiyani tushunish	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	90,3	0,005*
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	96,7	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	102,4	
Emotsiyalarni boshqarish	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	88,2	0,12
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	93,8	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar	98,1	

Izoh: * $p \leq 0,05$.

A.Mehrabian va N.Epsteinning «Emotsional empatiyani aniqlash shkalasi» so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar tahliliga ko‘ra, chet tili o‘qituvchilarining ish tajribasi ortib borishi bilan empatik xususiyatlarning ayrim ko‘rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatildi. Xususan, «empatik munosabatlarni tushunish» shkalasi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut aniqlandi ($p=0,004$). Mazkur ko‘rsatkich 5 yilgacha ish tajribasiga ega o‘qituvchilarda 76,5, 10 yilgacha ish tajribasiga ega pedagoglarda 82,8, 15 yilgacha ish tajribasiga ega o‘qituvchilarda esa 91,2 ni tashkil etdi. Ushbu natijalar kasbiy tajriba ortishi bilan o‘qituvchilarning boshqa shaxslarning hissiy holatini anglash, ularning emotsional ehtiyojlariga mos munosabat bildirish va pedagogik muloqotda empatik yondashuvni namoyon etish qobiliyatlari rivojlanib borishini ko‘rsatadi.

«Empatiyani tushunish» shkalasi bo‘yicha ham statistik jihatdan ahamiyatli

tafovut qayd etildi ($p=0,005$). Mazkur ko'rsatkich 5 yilgacha ish tajribasiga ega o'qituvchilarda 90,3, 10 yilgacha ish tajribasiga ega respondentlarda 96,7, 15 yilgacha ish tajribasiga ega pedagoglarda esa 102,4 ni tashkil etdi. Natijalarning izchil ortib borishi katta kasbiy tajribaga ega chet tili o'qituvchilarida empatik idrok, suhbatdoshning hissiy holatini tushunish va unga mos ravishda munosabat bildirish ko'nikmalari nisbatan yuqori rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu holat uzoq muddatli pedagogik faoliyat jarayonida talabalar bilan turli kommunikativ va emotsional vaziyatlarda o'zaro munosabat tajribasining ortishi bilan izohlanishi mumkin.

«Emotsional reaksiyalarni tushunish» shkalasi bo'yicha 5 yilgacha ish tajribasiga ega o'qituvchilarda 82,7, 10 yilgacha ish tajribasiga ega respondentlarda 85,2 va 15 yilgacha ish tajribasiga ega pedagoglarda 91,5 ko'rsatkich qayd etilgan bo'lsa-da, guruhlar o'rtasidagi tafovut statistik ahamiyatlilik darajasiga yetmagan ($p=0,14$). Shunga qaramay, ko'rsatkichlarning ish tajribasi ortishi bilan bosqichma-bosqich yuqorilashi pedagogik tajriba davomida boshqalarning emotsional reaksiyalarini anglash qobiliyatida muayyan ijobiy tendensiya mavjudligini ko'rsatadi.

«Emotsiyalarni boshqarish» shkalasi bo'yicha ham 5 yilgacha ish tajribasiga ega o'qituvchilarda 88,2, 10 yilgacha ish tajribasiga ega respondentlarda 93,8 va 15 yilgacha ish tajribasiga ega pedagoglarda 98,1 ko'rsatkich kuzatilgan, biroq aniqlangan tafovut statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p=0,12$). Ushbu natijalar kasbiy tajriba ortishi bilan pedagoglarning o'z emotsional holatini boshqarish imkoniyatlarida o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatsa-da, mazkur tendensiyaning statistik jihatdan ishonchli farq sifatida talqin qilish uchun yetarli asos mavjud emas.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari chet tili o'qituvchilarining ish tajribasi ortishi bilan, ayniqsa, «empatik munosabatlarni tushunish» va «empatiyani tushunish» ko'rsatkichlarining sezilarli rivojlanishini ko'rsatdi. Bu esa kasbiy tajriba sotsial-emotsional kompetentlikning empatik komponentlarini takomillashtiruvchi muhim psixologik determinantlardan biri ekanligini asoslash imkonini beradi. Shu jihatdan ish tajribasi nisbatan kam bo'lgan chet tili o'qituvchilari uchun empatik muloqot, emotsional idrok va pedagogik vaziyatlarda hissiy javoblarni konstruktiv boshqarishga yo'naltirilgan maxsus psixologik treninglar hamda mentorlik dasturlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

4-jadval.

S.R. Panteleev va V.V. Stolinning «Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash» so'rovnomasining qiyosiy ko'rsatkichlari (Kruskal-Uollis H-mezoniga ko'ra) (n=595)

Omillar	Guruhlar	Kruskal-Uollis H-mezoni bo'yicha tafovutli ko'statkichlar	p
O'z-o'ziga ishonch	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	75,4	0,004*
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	80,7	

	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	87,5	
O'z-o'zini idora qilish	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	77,6	0,005*
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	84,9	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	96,2	
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	85,4	0,16
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	88,6	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	94,2	
O'z-o'zini qadrlash	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	89,6	0,19
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	93,1	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	90,4	
O'z-o'zini qabul qilish	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	79,2	0,005*
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	86,6	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	93,1	
O'zini cheklash	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	77,4	0,12
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	89,7	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	79,2	
Ichki ziddiyat	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	82,1	0,15
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	88,8	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	77,5	
O'z-o'zini ayblash	5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	98,3	0,005*
	10 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	90,2	
	15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar	82,7	

Izoh: * $p \leq 0,05$.

Mazkur jadval tahlilida statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar «oʻz-oʻziga ishonch» ($p=0,004$), «oʻz-oʻzini idora qilish» ($p=0,005$), «oʻz-oʻzini qabul qilish» ($p=0,005$) hamda «oʻz-oʻzini ayblash» ($p=0,005$) shkalalarida kuzatilgan. Ushbu koʻrsatkichlarning yoʻnalishi pedagogik ish tajribasi ortishi bilan oʻqituvchilarning oʻziga nisbatan ijobiy munosabati va psixologik oʻzini-oʻzi boshqarish imkoniyatlari kuchayib borishini koʻrsatadi.

«Oʻz-oʻziga ishonch» shkalasi boʻyicha 5 yilgacha ish tajribasiga ega oʻqituvchilarda 75,4, 10 yilgacha ish tajribasiga ega respondentlarda 80,7 hamda 15 yilgacha ish tajribasiga ega pedagoglarda 87,5 koʻrsatkich qayd etilib, guruhlar oʻrtasidagi tafovut statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p=0,004$). Mazkur natija kasbiy tajriba ortishi bilan chet tili oʻqituvchilarining oʻz kasbiy imkoniyatlariga ishonchi, pedagogik vaziyatlarda mustaqil pozitsiya egallashi va qaror qabul qilishdagi ichki barqarorligi kuchayib borishini koʻrsatadi. «Oʻz-oʻziga ishonch»ning yuqori darajada rivojlanishi pedagogning murakkab kommunikativ vaziyatlarda konstruktiv harakat qilishi hamda talabalar bilan samarali munosabat oʻrnatishiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

«Oʻz-oʻzini idora qilish» shkalasi boʻyicha ham statistik jihatdan ahamiyatli tafovut aniqlandi ($p=0,005$). Koʻrsatkichlar 5 yilgacha ish tajribasiga ega oʻqituvchilarda 77,6, 10 yilgacha tajribaga ega respondentlarda 84,9 va 15 yilgacha ish tajribasiga ega pedagoglarda 96,2 ni tashkil etdi. Natijalarning izchil ortishi kasbiy tajriba davomida pedagoglarning oʻz xatti-harakati va emotsional reaksiyalarini boshqarish, faoliyatini ongli ravishda tartibga solish hamda murakkab pedagogik vaziyatlarda barqarorlikni saqlash qobiliyatlari rivojlanib borishini koʻrsatadi. Bu esa «oʻz-oʻzini idora qilish»ni sotsial-emotsional kompetentlikni taʼminlovchi muhim psixologik determinantlardan biri sifatida baholash imkonini beradi.

«Oʻz-oʻzini qabul qilish» shkalasida ham ish tajribasi boʻyicha ahamiyatli tafovut qayd etildi ($p=0,005$). Mazkur koʻrsatkich 5 yilgacha tajribaga ega oʻqituvchilarda 79,2, 10 yilgacha tajribaga ega respondentlarda 86,6 hamda 15 yilgacha ish tajribasiga ega pedagoglarda 93,1 ni tashkil etdi. Bu holat pedagogik tajriba ortishi bilan oʻqituvchilarning oʻz shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini adekvat qabul qilishi, oʻz imkoniyatlarini real baholashi hamda kasbiy «Men» obrazining barqarorlashib borishini ifodalaydi. Mazkur xususiyatning rivojlanganligi emotsional barqarorlik, oʻziga nisbatan konstruktiv munosabat va pedagogik muloqot samaradorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

«Oʻz-oʻzini ayblash» shkalasida esa teskari dinamika kuzatilib, 5 yilgacha ish tajribasiga ega oʻqituvchilarda 98,3, 10 yilgacha tajribaga ega pedagoglarda 90,2 va 15 yilgacha ish tajribasiga ega respondentlarda 82,7 koʻrsatkich qayd etildi hamda guruhlar oʻrtasidagi tafovut statistik jihatdan ahamiyatli boʻldi ($p=0,005$). Bu natija kasbiy tajriba ortishi bilan oʻqituvchilarda oʻzini haddan tashqari ayblash, muvaffaqiyatsizliklar uchun shaxsiy javobgarlikni keskin tarzda oʻz zimmasiga olish va salbiy oʻzini baholash tendensiyalari kamayib borishini koʻrsatadi. Bunday dinamika pedagoglarning kasbiy tajriba davomida psixologik jihatdan

barqarorlashishi va muammoli vaziyatlarni konstruktiv tahlil qilish ko'nikmalari shakllanishi bilan izohlanishi mumkin.

«O'z-o'ziga munosabatning aks etishi» ($p=0,16$), «o'z-o'zini qadrlash» ($p=0,19$), «o'zini cheklash» ($p=0,12$) va «ichki ziddiyat» ($p=0,15$) shkalalari bo'yicha guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar aniqlanmadi. Shu sababli mazkur ko'rsatkichlarni ish tajribasi ortishi bilan ishonchli ravishda o'zgaradi, deb talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Xususan, «o'z-o'zini qadrlash» ko'rsatkichlari 89,6, 93,1 va 90,4 tarzida namoyon bo'lganligi sababli bunda barqaror o'sish tendensiyasi ham kuzatilmaydi. «Ichki ziddiyat» va «o'zini cheklash» ko'rsatkichlaridagi tebranishlar esa ushbu xususiyatlar faqat ish tajribasi bilan emas, balki individual psixologik xususiyatlar, kasbiy stress, ichki motivatsiya va ijtimoiy muhit kabi boshqa omillar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, S.R.Panteleev va V.V.Stolinning «Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash» so'rovnomasi natijalari pedagogik ish tajribasi ortishi bilan chet tili o'qituvchilarida «o'z-o'ziga ishonch», «o'z-o'zini idora qilish» va «o'z-o'zini qabul qilish» kabi konstruktiv shaxsiy xususiyatlar kuchayib, «o'z-o'zini ayblash» tendensiyasi kamayishini ko'rsatdi. Mazkur natijalar kasbiy tajriba o'qituvchilarning sotsial-emotsional kompetentligini ta'minlovchi shaxsiy barqarorlik, o'zini-o'zi boshqarish va o'ziga konstruktiv munosabatni shakllantiruvchi muhim psixologik determinantlardan biri ekanligini asoslash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning «**Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishning psixokorreksion amaliy imkoniyatlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi samaradorligini belgilovchi pedagogik-psixologik omillar, sotsial-emotsional kompetentlik va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur bobda chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik korreksion dastur mazmuni, uning amaliy imkoniyatlari hamda sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning psixologik modeli yoritilgan.

5-jadval.

«Emotsional va sotsial intellekt» hamda «emotsional empatiyani o'rganish so'rovnoma»lari omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti mezonini bo'yicha) (n=595)

Omillar	Emotsional reaksiyalarni tushunish	Empatik munosabatlar ni tushunish	Empatiyani tushunish	Emotsiyalarni boshqarish
Emotsional intellekt	0,41*	0,68**	0,12	0,62**
Sotsial intellekt	0,48*	0,14	0,44*	0,56**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$. *** – $p \leq 0,001$.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, «emotsional intellekt» «emotsional reaksiyalarni tushunish» ($r=0,41$; $p\leq 0,05$), «empatik munosabatlarni tushunish» ($r=0,68$; $p\leq 0,01$) hamda «emotsiyalarni boshqarish» ($r=0,62$; $p\leq 0,01$) ko'rsatkichlari bilan ijobiy bog'liqlik hosil qilgan. Bu esa emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan o'qituvchilarda boshqalarning hissiy holatini anglash, empatik munosabat bildirish va emotsiyalarni boshqarish qobiliyatlari nisbatan rivojlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, «sotsial intellekt» «emotsional reaksiyalarni tushunish» ($r=0,48$; $p\leq 0,05$), «empatiyani tushunish» ($r=0,44$; $p\leq 0,05$) va «emotsiyalarni boshqarish» ($r=0,56$; $p\leq 0,01$) bilan ijobiy korrelyatsiyani namoyon etgan. Mazkur natijalar sotsial va emotsional intellekt chet tili o'qituvchilarining shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etishi, empatik yondashuvi va emotsional o'zini-o'zi boshqarishida muhim psixologik determinant ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, ushbu natijalar emotsional va ijtimoiy intellektning shaxslararo munosabatlar samaradorligida muhim rol o'ynashini isbotlaydi. Psixologik jihatdan qaralganda, yuqori emotsional va ijtimoiy intellektga ega shaxslar nafaqat o'z hissiyotlarini, balki boshqalarning his-tuyg'ularini ham yaxshiroq tushunib, samarali ijtimoiy muhit yaratishga qodir ekanliklarini ko'rsatadi.

6-jadval.


Emotsional va sotsial intellekt hamda emotsional holatlarda o'zini nazorat qilishni o'rganish so'rovnomalari omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik (K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti mezonini bo'yicha) (n=595)

Omillar	Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish	Faoliyatda o'zini nazorat qilish	Ijtimoiylashuv jarayonida o'zini nazorat qilish
Emotsional intellekt	0,54**	0,61**	0,14
Sotsial intellekt	0,12	0,40*	0,48*

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

Tahlil natijalariga ko'ra, «emotsional intellekt» bilan «emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish» ($r=0,54$; $p\leq 0,01$) hamda «faoliyat jarayonida o'zini nazorat qilish» ($r=0,61$; $p\leq 0,01$) o'rtasida ijobiy korrelyatsiya aniqlandi. Mazkur bog'liqlik emotsional intellekti rivojlangan o'qituvchilar murakkab va stressli vaziyatlarda o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish hamda faoliyatga mos ravishda konstruktiv qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ko'proq ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, «sotsial intellekt» «faoliyat jarayonida o'zini nazorat qilish» ($r=0,40$; $p\leq 0,05$) va «ijtimoiylashuv jarayonida o'zini nazorat qilish» ($r=0,48$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog'liqlikni namoyon etdi. Ushbu natijalar sotsial intellektning pedagogik faoliyatda shaxslararo munosabatlarni samarali boshqarish, yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslashish va o'z xulq-atvorini nazorat qilishni ta'minlovchi muhim psixologik determinant ekanligini ko'rsatadi.



1-rasm. Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirish modeli.

Taklif etilgan psixologik model oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarini yaxlit tizim sifatida ifodalaydi. Modelning maqsadli blokida sotsial-emotsional kompetentlikning «emotsional anglash», «hissiy boshqaruv», «kommunikativ moslashuv» va «refleksivlik» komponentlarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Mazmuniy blok emotsional va sotsial intellekt nazariyalariga asoslanib, mazkur kompetentlikni rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik yondashuvlarni qamrab oladi. Tashkiliy blokda bilingval muhit, empatiya, emotsional va sotsial intellekt, interpersonal sezgirlik, refleksivlik, o'zini-o'zi boshqarish hamda motivatsion-qadriyaviy xususiyatlar asosiy psixologik determinantlar sifatida belgilangan. Jarayonli blokda psixologik treninglar, case-study, rolli o'yinlar, guruhli refleksiya va interkultural vaziyatlar tahlili orqali sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari ifodalangan. Natijaviy blok esa mazkur kompetentlikning mezonlari, ko'rsatkichlari va rivojlanish darajalarini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, natijada chet tili o'qituvchilarida real pedagogik vaziyatlarda emotsional holatlarni anglash, boshqarish va samarali qaror qabul qilish kompetensiyasining shakllanishi ko'zda tutilgan.

7-jadval.

Oliy ta'lim chet tili o'qituvchisining sotsial-emotsional kompetentligi so'rovnomalari natijalarining qiyosiy natijalari (n=100)

№	Omillar	Guruhlar	Aniqlovchi tajriba	Nazorat tajriba	p
			M ₁	M ₂	
1.	Emotsional intellekt	Tajriba guruhi (n=50)	112,4	125,6	0,004**
		Nazorat guruhi (n=50)	113,1	116,2	0,13
2.	Sotsial intellekt	Tajriba guruhi (n=50)	2,9	4,1	0,005**
		Nazorat guruhi (n=50)	3,0	3,3	0,14
3.	O'z-o'ziga munosabat	Tajriba guruhi (n=50)	6,2	9,3	0,005**
		Nazorat guruhi (n=50)	6,3	6,8	0,15
4.	Umumiy SEK	Tajriba guruhi (n=50)	48,3	67,1	0,004**
		Nazorat guruhi (n=50)	49,0	52,1	0,12

Izoh: * p≤0,05; ** p≤0,01.

Tadqiqot natijalari korreksion-rivojlantiruvchi dastur ta'sirida tajriba guruhidagi oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligi ko'rsatkichlarida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy o'zgarishlar yuz

berganligini ko'rsatdi. Xususan, «emotsional intellekt» ko'rsatkichi aniqlovchi tajribada $M_1=112,4$ ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat tajribasida $M_2=125,6$ gacha oshib, statistik jihatdan ahamiyatli tafovut qayd etildi ($p \leq 0,01$). Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich $M_1=113,1$ dan $M_2=116,2$ gacha o'zgargan bo'lsa-da, ushbu farq statistik ahamiyatlilik darajasiga yetmagan ($p > 0,05$). Bu natija korreksion-rivojlantiruvchi dastur tajriba guruhi o'qituvchilarining o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish hamda murakkab pedagogik vaziyatlarda emotsional reaksiyalarini muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirganligini ko'rsatadi.

«Sotsial intellekt» ko'rsatkichi bo'yicha ham tajriba guruhida ijobiy dinamika kuzatilib, $M_1=2,9$ dan $M_2=4,1$ gacha oshgan va statistik jihatdan ahamiyatli tafovut aniqlangan ($p \leq 0,01$). Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich $M_1=3,0$ dan $M_2=3,3$ gacha o'zgargan bo'lsa-da, farq statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmagan ($p > 0,05$). Mazkur natijalar tajriba guruhi o'qituvchilarida ijtimoiy vaziyatlarni adekvat idrok etish, talabalar bilan konstruktiv munosabat o'rnatish hamda pedagogik muloqot jarayonida samarali hamkorlik strategiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ortganligini anglatadi.

«O'z-o'ziga munosabat» ko'rsatkichi tajriba guruhida $M_1=6,2$ dan $M_2=9,3$ gacha oshib, statistik jihatdan ishonchli tafovutni namoyon etdi ($p \leq 0,01$). Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich $M_1=6,3$ dan $M_2=6,8$ gacha o'zgargan bo'lsa-da, statistik ahamiyatli farq qayd etilmadi ($p > 0,05$). Ushbu natijalar korreksion-rivojlantiruvchi dastur o'qituvchilarning o'z kasbiy imkoniyatlarini adekvat baholashi, o'ziga konstruktiv munosabatni shakllantirishi, o'zini qabul qilishi hamda kasbiy refleksivlikni rivojlantirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi.

«Umumiy sotsial-emotsional kompetentlik» ko'rsatkichi bo'yicha tajriba guruhida eng yaqqol o'sish kuzatilib, $M_1=48,3$ dan $M_2=67,1$ gacha oshgan va mazkur tafovut statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p \leq 0,01$). Nazorat guruhida esa $M_1=49,0$ dan $M_2=52,1$ gacha bo'lgan o'zgarish statistik ahamiyatlilik darajasiga yetmagan ($p > 0,05$). Bu holat tajriba guruhi o'qituvchilarida emotsional anglash, ijtimoiy idrok, shaxslararo muloqot, o'ziga konstruktiv munosabat hamda emotsional o'zini-o'zi boshqarish bilan bog'liq kompetensiyalarning kompleks ravishda rivojlanganligini ifodalaydi.

Umuman olganda, tajriba guruhida «emotsional intellekt», «sotsial intellekt», «o'z-o'ziga munosabat» va «umumiy sotsial-emotsional kompetentlik» ko'rsatkichlari bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan ($p \leq 0,01$), nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar statistik ahamiyatlilik darajasiga yetmagan ($p > 0,05$). Olingan empirik natijalar ishlab chiqilgan psixologik model va korreksion-rivojlantiruvchi dastur oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarining emotsional hamda sotsial intellekti, o'ziga munosabati va umumiy sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

1. Oliy ta'lim muassasalari chet tili o'qituvchilarida sotsial-emotsional kompetentlik «emotsional anglash», «hissiy boshqaruv», «kommunikativ

moslashuv» va «refleksivlik» komponentlarining integrativ uygʻunligi asosida shakllanib, real pedagogik vaziyatlarda emotsional holatlarni adekvat anglash va boshqarish orqali samarali qaror qabul qilish kompetensiyasi bilan funksional bogʻliq ekanligi aniqlandi.

2. Chet tili oʻqituvchilarining bilingval muhitdagi interkultural muloqoti hamda verbal-noverbal persepsiyasi sotsial-emotsional kompetentlik rivojlanishiga differensial taʼsir koʻrsatib, bunda empatiyaning sotsial intellekt negizida dominant namoyon boʻlishi yetakchi psixologik determinantlardan biri ekanligi dalillandi.

3. Emotsional va sotsial intellektning oʻzaro uygʻunligi empatik idrok hamda interpersonal sezgirlikni kuchaytirib, emotsional reaksiyalarni tushunish va hislarni boshqarish koʻnikmalarining integratsiyasi sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantiruvchi muhim psixologik prediktor sifatida namoyon boʻlishi asoslandi.

4. Bilingval pedagogik muhitda shakllanadigan subyekt-subyekt munosabatlari oʻqituvchilarning emotsional holatlarda, kasbiy faoliyatda va ijtimoiylashuv jarayonida oʻzini-oʻzi nazorat qilish koʻnikmalarining integrativ namoyon boʻlishini taʼminlab, mazkur xususiyat sotsial-emotsional kompetentlik rivojlanishining muhim psixologik sharti ekanligi tasdiqlandi.

5. Chet tili oʻqituvchilarida emotsional intellektning «empatik munosabatlarni tushunish» va «faoliyat jarayonida oʻzini nazorat qilish» bilan, sotsial intellektning esa «ijtimoiylashuv jarayonida oʻzini nazorat qilish» hamda «emotsiyalarni boshqarish» bilan uzviy bogʻliqligi sotsial-emotsional kompetentlikning barqaror rivojlanishini taʼminlovchi oʻzaro taʼsir mexanizmi ekanligi isbotlandi.

6. Emotsional empatiya, sotsial moslashuvchanlik va shaxslararo muloqot xususiyatlaridagi dinamik oʻzgarishlar chet tili oʻqituvchilarining kasbiy oʻsish jarayonida professional yangilanishlarga tayyorligi, hamkasblar bilan samarali kommunikatsiya oʻrnatishi hamda talabalar bilan oʻzaro munosabatlarda psixologik barqarorlikni saqlashini taʼminlovchi muhim sotsial-emotsional omillar ekanligi asoslandi.

7. Sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan trening va mashgʻulotlarning tizimli qoʻllanilishi pedagoglar jamoasida oʻzaro ishonch, hamkorlik va birdamlik ruhini mustahkamlaydi. Bu jarayon jamoaviy ishlash samaradorligini oshiradi, oʻquv muhitidagi emotsional iqlimni yaxshilaydi va taʼlim jarayonida ruhiy muvozanatni taʼminlaydi.

8. Oliy taʼlim muassasalari chet tili oʻqituvchilarida «emotsional intellekt», «empatiya» va «muloqot koʻnikmalari»ning oʻzaro ijobiy bogʻliqligi talabalar bilan samarali munosabat oʻrnatish, oʻzaro ishonch va tushunish muhitini shakllantirish hamda kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini taʼminlovchi muhim psixologik omillar sifatida namoyon boʻlishi tasdiqlandi.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Oliy taʼlim muassasalari chet tili oʻqituvchilarida «emotsional intellekt», «sotsial intellekt», «empatiya» va «oʻzini-oʻzi boshqarish» koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglarni tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etiladi.

2. Chet tili o'qituvchilarining bilingval va interkultural muhitdagi faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida verbal va noverbal persepsiya, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ moslashuvchanlik hamda interpersonal sezgirlikni rivojlantiruvchi interaktiv mashg'ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan emotsional zo'riqish, stress va nizoli vaziyatlarni konstruktiv boshqarish uchun «emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish», «faoliyat jarayonida o'zini nazorat qilish» va «ijtimoiylashuv jarayonida o'zini nazorat qilish» ko'nikmalarini shakllantiruvchi psixokorreksion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish zarur.

4. Ish tajribasi nisbatan kam bo'lgan chet tili o'qituvchilarida «o'z-o'ziga ishonch», «o'z-o'zini idora qilish», «o'zini qabul qilish» va empatik munosabatlarni rivojlantirish maqsadida tajribali pedagoglar ishtirokidagi mentorlik, superviziya va refleksiv muloqot tizimini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

5. Chet tili o'qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini muntazam baholab borish uchun «emotsional anglash», «hissiy boshqaruv», «kommunikativ moslashuv» va «refleksivlik» komponentlari asosida psixodagnostik monitoringni tashkil etish hamda uning natijalariga muvofiq individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish lozim.

6. Oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish dasturlariga case-study, rolli o'yinlar, guruhii refleksiya, real pedagogik vaziyatlar tahlili va interkultural mashqlarni integratsiya qilish orqali sotsial-emotsional kompetentlikni rivojlantiruvchi psixologik model hamda korreksion-rivojlantiruvchi dasturdan tizimli foydalanish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.P.08.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКИСТАНА**

АТАХУЖАЕВА ШАХЛО АНВАРОВНА

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-
ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

19.00.06 –Возрастная и педагогическая психология. Психология развития

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Бухара – 2026

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована под номером B2023.4.DSc/P153 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Национальный педагогический университет Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Официальные оппоненты:

Сафаров Дилмурод Халимович
доктор психологических наук (DSc), профессор

Шарапова Сабохат Джапаровна
доктор психологических наук (DSc), профессор

Шеримбетова Замира Шалабаевна
доктор психологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Бухарский международный университет

Защита диссертации состоится в 14⁰⁰ часов 21st aug. 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.P.08.10 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11. (Тел.: +99865221-29-14; факс: +998365 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № 210118) (Адрес: 200118, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11. (Тел: +998365221-25-87).

Автореферат диссертации разослан « 3rd » august 2026 года

(реестр протокола рассылки № от « 3rd » august 2026 года



А.М. Назаров

Заместитель Председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

Ш.Ш. Рустамов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), доцент

А.А. Хусейнова

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В системах высшего образования развитых стран мира ведущими научными центрами широко исследуются вопросы подготовки преподавателей иностранных языков, развития их социально-эмоциональной компетентности в профессиональной деятельности, а также повышения качества преподавания до уровня требований современных образовательных реформ. В частности, на конференции TESOL (Teachers of English to Speakers of Other Languages) 2022 года социально-эмоциональная компетентность была отмечена как важный фактор, обеспечивающий профессиональное развитие преподавателей. Согласно исследованиям British Council, проведенным в 2023 году, установлено, что педагогическое воздействие преподавателей иностранных языков с развитой социально-эмоциональной компетентностью на студентов на 40 процентов эффективнее. В условиях современной глобализации изучение и преподавание иностранных языков является одним из важнейших условий международной интеграции, а преподаватели иностранных языков выступают основными участниками развития международного взаимодействия и межкультурной коммуникации. В связи с этим развитие социально-эмоциональной компетентности преподавателей иностранных языков высших образовательных учреждений становится одной из актуальных научно-практических проблем международной системы образования¹.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях особое внимание уделяется развитию социально-эмоциональной компетентности преподавателей иностранных языков в их профессиональной деятельности, повышению качества обучения иностранным языкам посредством эффективной коммуникации, установлению конструктивного взаимодействия со студентами, учету культурных различий, преодолению психологических барьеров в изучении языка, а также исследованию таких педагогико-психологических факторов, как профессиональное самоопределение. Профессиональная мотивация, стрессоустойчивость, социальная адаптация и коммуникативные способности преподавателей иностранных языков непосредственно влияют не только на успешность их профессиональной деятельности, но и на эффективность усвоения знаний студентами. В связи с этим возрастает необходимость расширения научных исследований в данном направлении, совершенствования современных образовательных стандартов и разработки специальных программ, направленных на развитие социально-эмоционального потенциала преподавателей².

В обновляющемся Узбекистане в рамках «Стратегии развития» на 2022-2026 годы определены такие приоритетные задачи, как развитие человеческого капитала, повышение качества образования и его адаптация к международным стандартам, развитие научно-инновационной деятельности высших образовательных учреждений, совершенствование системы обучения

¹ <https://www.tesol.org/convention-2022>

² <https://www.tesol.org>

иностранным языкам, стимулирование педагогов, имеющих международные сертификаты, а также расширение совместных образовательных программ с зарубежными высшими образовательными учреждениями. Реализация данных задач служит важной основой для развития социально-эмоциональной компетентности преподавателей иностранных языков высших образовательных учреждений, повышения эффективности их профессиональной деятельности, освоения передового зарубежного опыта и подготовки молодежи в соответствии с требованиями глобального рынка труда³.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 29 октября 2020 года № УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», в Постановлении «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 января 2022 года № 34 «О дополнительных мерах по совершенствованию изучения иностранных языков», а также в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» и других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴.

Научные исследования, направленные на изучение психологических Научные исследования, направленные на изучение психологических детерминант развития социально-эмоциональной компетентности преподавателей иностранных языков высших образовательных учреждений, в настоящее время последовательно проводятся в ведущих высших образовательных учреждениях и научно-исследовательских центрах мира. В частности, вопросы развития эмоциональной устойчивости, эмпатических способностей, коммуникативной компетентности, профессиональной мотивации, стрессоустойчивости, социальной адаптивности и саморегуляции преподавателей иностранных языков широко исследуются в Кембриджском

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

⁴ <https://www.cam.ac.uk/>; <https://www.harvard.edu/>; <https://www.tesol.org/>; <https://www.britishcouncil.org/>; <https://ec.europa.eu/>; <https://www.oecd.org/>; <https://www.apa.org/>; <https://www.unesco.org>

университете (Великобритания), Гарвардском университете (США), TESOL International Association (США), British Council (Великобритания), European Commission (Бельгия), OECD, American Psychological Association (США), а также в рамках образовательных и педагогических исследований UNESCO. В данных исследованиях социально-эмоциональная компетентность преподавателя иностранного языка рассматривается как важный фактор, обеспечивающий эффективность его профессиональной деятельности, установление конструктивного взаимодействия со студентами, управление межкультурной коммуникацией и создание психологически благоприятной среды в образовательном процессе.

В результате исследований, направленных на развитие социально-эмоциональной компетентности преподавателей иностранных языков на международном уровне, сформулирован ряд важных научных выводов. В частности, обосновано, что психологическая подготовленность и эмоциональное состояние преподавателей являются важными факторами, влияющими на эффективность образования (Кембриджский университет, Великобритания); выявлено положительное влияние социально-эмоциональных навыков на педагогическое взаимодействие и учебную активность студентов как в онлайн-, так и в традиционных условиях обучения (Гарвардский университет, США). Кроме того, определена значимость развития у преподавателей иностранных языков навыков управления эмоциями, эмпатии, эффективной коммуникации и межкультурной чувствительности для повышения эффективности профессиональной деятельности (TESOL International Association, США; British Council, Великобритания); развитие эмоциональной устойчивости и коммуникативной компетентности преподавателей оценено как важное условие повышения качества образования (European Commission, Бельгия). Наряду с этим изучена взаимосвязь социально-эмоциональной компетентности с профессиональной удовлетворенностью, психологической устойчивостью, стрессоустойчивостью и профессиональной мотивацией (OECD; American Psychological Association, США), а социально-эмоциональный потенциал преподавателя признан важным фактором обеспечения психологической безопасности, взаимного уважения и эффективного педагогического сотрудничества в образовательной среде (UNESCO).

В мировом масштабе выделяется ряд приоритетных направлений исследований, ориентированных на психологическое совершенствование социально-эмоциональной компетентности преподавателей иностранных языков высших образовательных учреждений. Они охватывают определение особенностей «эмоциональной устойчивости», «эмпатии», «коммуникативной компетентности», «профессиональной мотивации», «стрессоустойчивости» и «социальной адаптивности» преподавателей иностранных языков; совершенствование психодиагностических средств, позволяющих оценить психологические детерминанты влияния социально-эмоциональной компетентности на эффективность профессиональной деятельности; внедрение в практику тренингов и психологических технологий, направленных на развитие самосознания, управления эмоциями,

